UO'T: 635.656: 631.527

ICARDADAN KELTIRILGAN NO'XAT KOLLEKSIYASIDAN MEXANIZASIYA YORDAMIDA O'RISHGA MOS NAV NAMUNALARINI TANLASH

Narbayeva M.A.
I bosqich tayanch doktoranti.
Naxalbayev J.T.
q/x.f.f.d.(PhD).,k.i.x, Dukkakli don ekinlari seleksiyasi va urug'chiligi laboratoriyasi mudiri.
Jurayev M.A.
q/x.f.f.d.(PhD).,k.i.x.
Mamatqulov A.T.
q/x.f.f.d.(PhD).,kichik ilmiy xodim.
https://doi.org/10.5281/zenodo.24361647

Annotasiya: *Ushbu maqolada no'xatning ICARDA dan keltirilgan kolleksiya pitomnigidan tanlab olingan, mexanizasiya yordamida o'rishga mos, uzun bo'yli va ostki dukkagi yerdan balandligi yuqori bo'lgan nav namunalari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*
Kalit so'zlar: *no'xat, nav namuna, o'simlik bo'y uzunligi, ostki dukkakning yerdan balandligi.*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о сортообразцах нута, отобранных из коллекционного питомника ICARDA, пригодных для механизированной уборки, отличающихся высокорослостью и высоким прикреплением нижнего боба.*
Ключевые слова: *нут, сортообразец, высота растения, высота прикрепления нижнего боба.*

Abstract: *This article presents data on chickpea accessions selected from the ICARDA collection nursery, which are suitable for mechanized harvesting due to their tall plant height and high insertion height of the lowest pod.*
Keywords: *chickpea, accession, plant height, lowest pod height.*

No'xat (Cicer arietinum L.) dunyo dehqonchiligida muhim oziq-ovqat dukkakli don ekinlaridan biri hisoblanadi. Uning doni yuqori oqsil miqdori, oziqaviy qiymati va turli oziq-ovqat mahsulotlari tayyorlashda keng qo'llanilishi bilan ajralib turadi. No'xat yetishtirish samaradorligini oshirishda nafaqat don hosildorligi, balki hosilni mexanizatsiya yordamida qisqa muddatda va kam nobudgarchilik bilan yig'ishtirib olish imkoniyatini ta'minlaydigan morfologik belgilarni yaxshilash ham muhim ahamiyatga ega.

No'xat o'simligining bo'y uzunligi, ostki dukkakning yerdan balandligi hamda poya shaklining tikroq o'sishi don hosilini mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishda katta ahamiyatga egadir.

No'xatni mexanizatsiya yordamida yig'ishtirib olishda o'simlikning yer yuzasiga nisbatan joylashishi alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, pastki dukkaklarning tuproq yuzasiga juda yaqin joylashishi o'rim jarayonida hosilning bir qismini kombayn kesish apparati qamrab ololmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Natijada dalada qoladigan dukkaklar va don nobudgarchiligi ortadi. Shu sababli

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

birinchi dukkak joylashgan balandlik no‘xat seleksiyasida mexanizatsiyalashgan yig‘imga moslikni belgilovchi muhim morfologik ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi.

No‘xat o‘simligining yangi navlarini yaratish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan ko‘pgina mamlakat olimlari o‘simliklar bo‘yining balandligi muhim ahamiyatga ega ekanligini e’tirof etgan holda, ota-onalik shakllarga doimo baland bo‘yli poyasi jips joylashgan nav namunalarni tanlab olganlar [5]. Rustamov S o‘z ilmiy izlanishlarida no‘xatning baland bo‘ylilgi va kechpisharligi orasida ijobiy korrelyasion bog’lanish borligini ta’kidlab o‘tgan [6].

O‘simlik bo‘y uzunligining baland bo‘lishi mexanizatsiya uchun yagona mezon emas. Poyaning mexanik mustahkamligi va yotib qolishga chidamliligi hosilni saqlab qolishning hal qiluvchi omilidir. Poyaning yerga egilishi nafaqat dukkaklarning tuproq bilan kontaktda bo‘lishiga, balki zamburug‘li kasalliklar rivojlanishiga ham sharoit yaratadi. Shuningdek, fenologik xususiyatlar – xususan, gullash va pishish muddatlarining sinxronligi o‘ta muhim [8].

Materiallar va metodlar. Lalmikor dehqonchilik ilmiy-tadqiqot instituti dukkakli don ekinlari seleksiyasi va urug’chiligi laboratoriyasining ICARDAdan keltirilgan no‘xatning kollelsiya pitomnigida o‘rganilayotgan 111 ta no‘xat nav namunalari tajriba materiallari bo‘lib hisoblanadi.

Tajriba kuzatuvlari, tahlilar DDEITI G’allaorol ITS [1], Butunittifoq o‘simlikshunoslik instituti [3] uslubiy qo‘llanmalari hamda Sobiq Butunittifoq o‘simlikshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti klassifikatori (*RODA CICER L.1980*) [4] ma’lumotlari bo‘yicha tahlil qilindi.

Biometrik taxlil natijalariga ko‘ra no‘xat nav namunalari bo‘y uzunligi bo‘yicha 5 ta guruxga ajratildi. Bo‘y uzunligi - bu yilgi ob-havo sharoiti seryog’in kelganligini inobatga olgan holda <30,0 sm bo‘lgan nav namunalar juda past bo‘yli, 30,1-40,0 sm past bo‘yli, 40,1-50,0 sm o‘rta bo‘yli, 50,1-55,0 sm baland bo‘yli, 55,0 smdan yuqori bo‘y uzunligiga ega bo‘lganlari juda baland bo‘yli guruxga ajratildi.

Klassifikator (*RODA CICER L.1980*) - uslubiy qo‘llanmasida no‘xat nav namunalarini o‘suv davri bo‘yicha andozaga nisbatan juda ertapishar, ertapishar, o‘rtapishar, kechpishar, juda kechpisharligi bo‘yicha guruxlarga bo‘linishi ko‘rsatib o‘tilgan.

Tadqiqot natijalari. Biometrik taxlil natijalariga ko‘ra juda past bo‘yli guruxga 1 ta, past bo‘yli guruxga 22 ta, o‘rta bo‘yli guruxga 63 ta, baland bo‘yli guruxga 19 ta, juda baland bo‘yli guruxga 6 ta nav namunalar mansub ekanligi aniqlandi.

Ostki dukkagi yerdan 17 smdan pastda joylashgan nav namunalar 6 tani, 17,1-20,0 sm o‘rtaliqda joylashgan nav namunalar 24 tani, 20,0 smdan balandda joylashgan nav namunalar 81 tani tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval.

Mexanizasiya bilan o‘rishga mosligi bo‘yicha tanlab olingan nav namunalar (G‘allaorol, 2026 yil)

	Nav namunalar nomi	O‘simlik bo‘y uzunligi, sm	Ostki dukkakning yerdan balandligi, sm	O‘suv davri, kun	Hosildorligi, s/ga
1	Yulduz (and)	41,2	17,8	84	16,0
2	FLIP 19-56C	50,4	30,2	85	16,9
3	FLIP 19-	50,0	31,0	85	19,0

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

	68C				
4	FLIP 19-90C	60,0	34,8	87	15,0
5	FLIP 19-08C	59,6	34,0	86	13,1
6	FLIP 19-53C	54,8	30,4	86	16,4
7	FLIP 19-29C	55,4	30,8	86	15,3
8	FLIP 19-25C	55,4	32,0	86	15,6
9	FLIP 19-62C	50,0	31,2	86	16,4
10	FLIP 19-49C	55,6	28,2	89	13,8
11	ILC 3279	55,6	30,9	90	10,4
12	FLIP 19-50C	50,2	28,2	85	16,3
13	FLIP 19-75C	50,2	28,6	87	15,6
14	FLIP 19-01C	54,8	34,0	87	11,0

Biz o'rgangan ICARDA no'xat kolleksiyasidagi no'xat nav namunalari o'suv davri davomiyligi ushbu qishloq xo'jaligi yilida 80-93 kunni tashkil etdi. Mahalliy andoza Yulduz navining o'suv davri davomiyligi bu yilgi tajribalarimizda 84 kunni tashkil etdi.

Xulosa.

O'rganilgan no'xat nav namunalar orasidan FLIP 19-69C (19,0 s/ga), FLIP 19-56C (16,9 s/ga), FLIP 19-53C (16,4 s/ga), FLIP 19-62C (16,4 s/ga), FLIP 19-50C (16,3 s/ga) nav namunalari don hosildorligi andoza Yulduz naviga nisbatan (16,0 s/ga) +0,3 - + 3,0 s/ga yuqori bo'lganligi hamda bo'y uzunligi 50 smdan, ostki dukkakning yerdan balandligi 20,0 sm dan balandligi uchun mexanizasiya bilan o'rishga mos hosildorligi yuqori namunalar sifatida tanlab olindi

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amanov A.A. va boshqalar. Donli ekinlar seleksiyasi va boshlang'ich urug'chiligi bo'yicha uslubiy qo'llanma. G'allaorol 2004 yil.
2. Вавилов П.П. Нут. Растениеводство. М. Агропромиздат. 1988. с. 190.
3. Изучение мировой коллекции пшеницы. Методические указания. ВИР. Ленинград 1984.
4. Классификатор (RODA CICER L.) (Нут). Ленинград 1980.
5. Мирошниченко И.И., Павлова А.М. Нут. Москва-Ленинград.-1953.с. 155.

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.

6. Рустамов С. К вопросу селекции нута в горной зоне богары. //Пути повышения урожаев зерновых, зернобобовых и кормовых культур при интенсивной технологии. Ташкент.-1989. с. 58-61.
7. Шукуруллаев П.Ш. Биолого-экологическая и агрономическая оценка форм и сортов нута в условиях богары Узбекистана. Автореф. канд.с/х.н. Ташкент. 1968. С. 24
8. Kumar, J., & Abbo, S. (2001). Genetics of flowering time in chickpea and its bearing on productivity in semiarid environments. *Advances in Agronomy*, 72, 107-138

© Ushbu material Creative Commons Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) litsenziyasi asosida tarqatiladi.